

INNOVATSION IQTISODIYOTDA INTELEKTUAL MULK

Ruziyeva Maftuna Yusufvna

Toshkent Moliya Instituti magisteri


<https://doi.org/10.5281/zenodo.7937411>

Annotatsiya: “Innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulk” maqolasiga qisqacha ma’lumot. Ushbu ilmiy maqolada intellektual mulkning innovatsion iqtisodiyotdagi tutgan o’rni ko’rsatilgan, shuningdek intellektual mulkni kelib chiqishi va ta’riflari haqida so’z boradi. Ushbu maqolada intellektual mulkni turlari va himoyalash usullari berilgan.

Kalit so’zlar: Innovatsion iqtisodiyot, intellektual mulk, aqliy qobiliyat, intellekt

Bugungi kunda “intellektual mulk”, “intellektual aktiv”, “intellektual kapital”, “nomoddiy aktiv” va “sezib bo’lmaydigan yoki sirli moddalar” atamaları turli talqin ko’rinishida qo’llanib kelinmoqda. Qaysi tushuncha ustuvor sifatida qarash mumkin degan savollar ham paydo bo’ladi. Iqtisodchi olimlar va mutaxassislar yoki me’yoriy xujjatlardagi bunday turli yondashuvlar ushbu kategoriyalarning mazmuniga to’liq muvofiq keladi degan xulosani chiqarishga xali erta, tushunchalar va yondashuvlar turlicha bo’lib bir-birini mazmunan to’ldirish mukammal darajada shakllanmagan. Sababi, “intellektual” tushunchasining o’zi chegarasi yo’q, uni ma’lum bir qolipga yoki standartga solib bo’lmaydi. Huddi shuningdek, uning tovarga (bozorda sotilishi mumkin bo’lgan) aylanadigan obyektlari bo’yicha ularning qiymati (bahosini)ni aniqlash ancha mushkul vazifadir. Bu borada ham jahon amaliyotida aniq to’plam yoki chegara mavjud emas. Qaysiki usul to’g’ri kelsa hozircha tanlangan usullar qo’llanib kelinmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda talqin qilinishicha intellekt so’zi, bu lotinchadan (intellektus) olingan bo’lib, bilish, tushunish, idrok qilish ma’nolarini anglatadi. Intellektni keng ma’noda insonning aqliy qobiliyati, hayotini, atrof muhitini ongda aynan aks ettirish va o’zgarish, fikrlash, o’qish, o’rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyatini tushinish mumkin.[1]

Intellekt shuningdek idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish va so’zlash kabi psixik jarayonlarni o’z ichiga olib, uning rivojlanishi tug’ma iste’dod, miya imkoniyatlari, jo’shqin faoliyat va hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog’liqdir.



1-rasm. Intellekt tushunchasining umumiy tarkibi[2]

Intellektual mulk tushunchasi ilk marta xalqaro huquqiy hujjatlarga 1967-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkilotini (BIMT) tashkil qiluvchi Stokgolm konvensiyasida kiritilgan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha ta'riflanadi: "Intellektual mulk-ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi

majmuasiga kiruvchi sanoat namunalari, ixtirolar, kompyuterlar uchun dasturlar, tovar belgilari... va boshqalar aqliy mulk obyektlariga kiradi"[3]

Intellektual mulk huquqi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining IV bolim 59-bob 1031-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan.

Intellektual mulk obyektlariga quyidagilar:


I. Intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san'at asarlari;
- ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;
- elektron hisoblash mashinalari (EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

Tarixiy jihatdan dunyoda intellektual mulk huquqlariga oid qonunchilik ikki yo'nalishda rivojlandi:

- ❖ mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchilik;
- ❖ sanoat mulkini himoya qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasiga doir sanoat mulki qonunchiligi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab sanoatining zamonaviy konsepsiyasi ham nou-xaularni o'z ichiga ola boshladi. Yaqindan esa unga seleksiya yutuqlari va integral mikrosxemalar tipologiyasi kabi noan'anaviy obyektlarga murojaat qilish tendensiyasi paydo bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sanoat mulki va mualliflik huquqi obyektlari bevosita innovatsion mahsulotlar bilan bog'liqdir. Intellektual mulk instituti o'z obyektlariga *intellektual huquqlar* deb nomlanishini qabul qilgan.



2-rasm. Intellektual huquqlarining tarkibi[4] Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning eksklyuziv xususiyati ularning egalari qonun bilan ruxsat etilgan barcha harakatlarni bajarishini ta'minlaydi. Shu bilan birga bir vaqtning o'zida barcha uchinchi shaxslarga egalarining roziligisiz bunday harakatlarni amalga oshirishni taqiqlaydi. Intellektual faoliyat natijalarining intellektual huquqlarini tarkibi 2-rasmda keltirilgan.

O'zbekistonning bugungi innovatsion rivojlanish yo'lidan borishida intellektual mulk obyektlarining buxgalteriya hisobini respublikamiz iqtisodiyoti sharoitiga mos nazariy, metodologik va amaliy negizlarini chuqur ilmiy izlanishlar asosida tadqiq etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, xalqaro amaliyotdagi ilg'or tajribalar asosida mavjud intellektual mulk obyektlaridan samarali foydalanish va uni baholashda tahlil qilish jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Intellektual. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 4-tom. 179-bet
4. Мазур Н.З. Методология управления интеллектуальной собственностью в условиях инновационной экономики М., 2008
5. А.Таниев. "Innovatsion iqtisodiyot". Darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 y.- 232 b